

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ҲУЗУРИДАГИ ТАЛАБА ВА ЎҚУВЧИЛАРНИ МАЪНАВИЙ  
ЮКСАЛИШИГА КЎМАКЛАШИШ МАРКАЗИ  
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ  
НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ЛИДЕР ЁШЛАР ВА АЁЛЛАР МАРКАЗИ  
ЎЗБЕКИСТОН НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ  
ТАШКИЛОТЛАРИ МИЛЛИЙ АССОЦИАЦИЯСИ  
ЎЗБЕКИСТОН НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИНИ  
ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЖАМОАТ ФОНДИ  
ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАР ИТТИФОҚИ  
ТОШКЕНТ ШАҲАР КЕНГАШИ**

## **“ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР: ОЛИМЛАР ВА ЁШЛАР НИГОҲИДА”**

**мавзусидаги Республика илмий-амалий  
конференция тўплами**

*2022 йил 29 сентябрь*

**“Таълим тизимидаги ислоҳотлар: олимлар ва ёшлар нигоҳида”** мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция тўплами // Тошкент, 2022 йил 29 сентябрь. – 624 б.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 августдаги “Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4433 сонли Қарорида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Талаба ва ўқувчиларни маънавий юксалишига қўмаклашиш маркази, Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотлари миллий ассоциацияси, Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотларини қўллаб-қувватлаш жамоат фонди, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Тошкент шаҳар Кенгаши ҳамда Навоий вилояти Лидер ёшлар ва аёллар маркази ҳамкорлигида **“Таълим тизимидаги ислоҳотлар: олимлар ва ёшлар нигоҳида”** мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси ўтказилди.

Мазкур конференция тўпламида икки юзга яқин мақолалар жамланган.

#### **Масъул муҳаррир:**

**Ёқуб Эргашов** – Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, физика-математика фанлари доктори, доцент (ЎзМУ)

#### **Таҳрир ҳайъати:**

**Акбар Утамуратов** – фалсафа фанлари номзоди, профессор (ЎзМУ)

**Мақсуда Хажиева** – фалсафа фанлари доктори, профессор (УрДУ)

**Қодиржон Абдурахимов** – психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент (ЎзМУ)

**Мансур Айтбаев** – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент (ТДАУ)

**Жамшид Юсубов** – сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент (ЎзМУ)

**Серобжон Юлдашев** - фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (ФарДУ)

**Расул Рўзметов** – катта ўқитувчи (ЎзМУ)

**Умид Менгликулов** – катта ўқитувчи (ЎзМУ)

**Бекзод Эрназаров** – ўқитувчи (ЎзМУ)

**Суроғбек Султонов** – ўқитувчи (ТДТУ)

#### **Ташкилий қўмита котиби:**

**Жалолиддин Юсубов** - фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент (ЎзМУ)

#### **Техник муҳаррир:**

**Гулбону Куватова** - Навоий вилояти Лидер ёшлар ва аёллар маркази раҳбари

**Мақолаларнинг тўғри ва аниқлигига муаллифлар масъулдир.**

© Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент

информации, то есть «сделать эти исследования – полезными для образовательной политики нашей страны»

**Литература:**

1. Siddikova Sh.A Pisa Program for Reading and Science Literacy Improvement in Biology Studies.// Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 3230 - 3238 / 16 February 2021; Accepted 08 March 2021.

2. Yakhshieva Z.Z.Siddikova Sh.A. Formation of teachers' competence in accordance with international programs.//Mental Enlightenment Scientific Methodological Journal Volume 2020 Issue 2 Article 1 12-30-2020 Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/tziuj>.

3. Siddikova Sh.A. Formation Of Future Specialists In Teaching Natural Sciences//Publication Year: 2020 Solid State Technology Volume: Home /Archives/Vol 63N°6/2020/Artcles Indexedby Scopus

4. Yakhshieva Z.Z.Siddikova Sh.A Functional Literacy In Living Challenges (Pisa Study)//International Scientific and Current Research conferences^ Pedagogy and Modern Education: tradition, experience and innovation" conference date 05-02-2021 DOI <https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf02> Indianapolis, Indiana USA6.

5. Siddikova Sh.A. Approche creative basee sur les tests PISA. //8International Journal of Aquatic Science ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 02, 20217. Сиддикова Ш.А. - Шарипова Л. Почему тестирование PISA - это важный рубеж для системы образования Узбекистана Journal of Natural Science №5 (2021) <http://natscience.jspi.uz>

8. Яхшиева З.З. Сиддикова Ш.А. Научный подход оценивания знаний на основе вопросов PISA. Journal of Natural Science №4 (2021) <http://natscience.jspi.uz>

9. Сиддикова Ш.А. Естественнонаучная грамотность (исследование PISA) - это путь осмысления и улучшения знаний учащихся. Scientific Bulletin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDUilmiy axborotnomasi-2022-yil 4-con

**“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALI VA JURNALDAGI  
ADABIYOT MATERIALLARI TASNIFI**

***Soatova Gulzoda Nurmamat qizi***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

O‘tgan asrning 20-yillari o‘zbek adabiyotshunosligining shakllanish va sinov yillari bo‘ldi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. A. Nurmonov ta’kidlaganidek, bu davrda Markaziy Osiyoda ziyolilar o‘rtasida milliy o‘z-o‘zini anglash hissi kuchaydi<sup>246</sup>, bu esa o‘z navbatida milliy til va adabiyotni yaratishga urinishni yuzaga keltirar edi. Bu masalalar

---

<sup>246</sup> Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O‘z, 2006. – B.117

ayniqsa vaqtli matbuotda keng munozara qilingan. Bu haqda tarix asarlarida shunday deyiladi: "... shu narsani ta'kidlash kerakki, hali 20 yillarning boshlarida madaniyat va san'at sohasida, umuman, barcha sohalarda nisbatan ma'lum darajada bo'lsa-da, ijodiy erkinlik hukm surardi"<sup>247</sup>. Bu borada, 20-yillarda "Taraqqiy", "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Sharq haqiqati" kabi gazetalar, "Inqilob", "Yangi yo'l", "Yer yuzi", "Alanga", "Bilim o'chog'i", "Maorif va o'qitg'uchi" kabi adabiy-badiiy jurnallar jamotchilik nazarini tortgan va ularda davrning til siyosati, adabiyotning ilmiy muammolari, adabiy taftish va adabiy tanqid masalalari erkin muhokama ob'ekti bo'lgan.

Ma'lumki, hozirgi davrda ham ilmiy jurnallar ustida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni yorituvchi asosiy ishonchli matbaa turi bo'lib turibdi. Garchand, "Maorif va o'qitg'uchi" jurnaliga o'sha davrda bunday maqom berilmagan bo'lsa-da, o'z davrining eng ilg'or va zarur deb hisoblangan maqolalar chop etilgan ham ilmiy qimmatga ega bo'lgan. Ularning o'rganilishi, birinchidan, o'sha davr adabiyotshunosligini tasavvur qilishga imkon beradi, ikinchidan, davr talablari asosida o'zbek adabiyotshunosligida ayrim aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan masalalarni belgilab olishga yordam beradi.

Turkiston ziyolilari ustida yakdillikni vujudga keltirish barcha ijodiy kuchlarni o'z atrofida to'plash uchun matbuot organi nihoyatda zarur edi. 1925-yilda O'zbekistonda umumiy tiraji 92 ming nusxa bo'lgan 24 nomda gazeta va 22 nomda jurnal chop qilinib turdi<sup>248</sup>.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali 23 yoshida vazir bo'lgan Rahim Oxunjonovich Inog'omov tashabbusi bilan ish boshlagan.

Rahim Oxunjonovich Inog'omov 1902- yil dekabr oyida Toshkentda tug'ildi. Namuna maktabida, so'ng Moskvadagi Sverdlov universitetida, Sharqshunoslik institutida o'qidi. Fitratning "Chig'atoy gurungi"da ishtirok etib, o'z davrining ilg'or fikrli yoshlaridan biriga aylandi. R.Inog'omov Akmal Ikromov, Usmonxon Eshonxo'jaev, Abdullajon Karimov kabi Turkistonlik talabalar bilan 1922-1923 yillar Moskvada "So'l kommunistlar" nomli guruh tashkil etadi. Ular: "Oktabr inqilobi Turkiston mehnatkashlariga hech qanday ozodlik bermadi, biz hamon Rossiya koloniyasi holidamiz", - der edi<sup>249</sup>.

Uning "Dunyoning ahvollaridan", "To'lgan to'qqiz yilni ham ko'rsinlar" nomli maqolalari, 1926 yilda nashr etilgan "O'zbekiston ziyolilari" asari katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Asarda oktabr to'ntarilishiga salbiy munosabatda bo'lib, o'zbeklarning maorif sohasidagi yutuqlari inqilobning emas jadidchilarning say harakatlaridir, degan fikrlarni aytadi. 1925 yilda Toshkentga kelgan Rahim Inog'omov Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissari lavozimiga tayinlanadi. Uning tashabbusi bilan maorif komissarligining nashri afkori sifatida "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali ta'sis etildi. Ayni vaqtda bosh muharrir R.Inog'omov g'ayrat bilan ishga kirishdi va

---

<sup>247</sup> O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000. – B. 270.

<sup>248</sup> Qoriniyozov T.N. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. – Toshkent: Fan, 1956, – B. 305.

<sup>249</sup> Irzayev B. Kommunistlarga qarshi chiqqan kommunist. - O'yinahttps://oyina.uz › article

jurnalning ilk sonida u butun maorif idoralariga va maorif ishchilariga murojaat qilib: “Bu chiqorilgan jurnolning hozirgi maorif maydonidagi ehtiyojlarimizda katta rol o‘ynashida shubhamiz yo‘qdir. Mamlakatning shunday jurnollar bilan to‘lishin istar edik. Lekin baxtga qarshi ko‘p qiyin sharoitlar orqasida birdan bir o‘zbek tilida shu bittagina jurnol vujudga keladir”, - deydi va so‘zining davomida barchani ushbu jurnalning taraqqiy etishi uchun obuna bo‘lishi, hammaga tarqatishi, ijodkorlar maqolalarini berib borishlarini so‘raydi.

“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1-soni O‘zbekiston jumhuriyati Maorif xalq komissarligi tomonidan 1925 yil mart oyidan Toshkentda chiqa boshlagan oyda bir marta chop etilgan “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali ijtimoiy-siyosiy, ta‘limiy-tarbiyaviy, adabiy, ilmiy, fanniy va rasmiy jurnal bo‘lib, xalq ommasini savodli qilish, ongini o‘stirish, turmush farovonligi darajasini ko‘tarish, xotin-qizlar ozodligi, adabiyotshunoslik va tilshunoslik muammolari hamda bir qator hayotiy masalalarni, madaniyatimizdagi yangiliklarni yoritishdek ulkan vazifani o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi.

“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali shiori: “Butun dunyo yo‘qsillari birlashingiz!” بوتون بوتون 1930 yildan esa “Butun dunyo proletarlari birlashingiz!” بوتون بوتون دونييا يوقسوللارى برله شينكىز! دونييا براليتارلارى برله شينكىز! tarzida o‘zgartirilgan. Jurnal mas‘ullari jurnalning kelajagi va uzoq umr ko‘rishi uchun o‘z vazifalariga sidqidildan yondashishgan. Bu boshqarma (tahririyat) tomonidan jurnalning 1-soni ilk sahiflarida berilgan chaqiriqda yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Jurnalimiz tilagi maorif xodimlariga ma‘naviy ko‘mak berishdir. Otini “Maorif va o‘qitg‘uvchi” qo‘ydiq. Bas, shuni o‘qig‘on kishilarning o‘zi ma‘nosini anglasa kerak. Bu kungacha shunday o‘rtoqchilik gazeta bo‘lmadi. Boshqa mamlakatlarni ko‘rsak, ularda turli yo‘llardagi jurnallar to‘lib chiqib turardi. Boshqalarini qo‘ya qolaylik, ayniqsa, bir ish haqida ham bir necha ismda jurnal va gazetalar chiqadi. Bizda bo‘lsa, maorif xodimlarining xizmat maydoniga ko‘mak uchun endigina mana shu jurnal chiqariladi...”<sup>250</sup>.

Jurnalning “Tarjimai hol” ruknida taniqli ijodkorlar tarjimai holi, “Adabiy taftishlar” ruknida esa yubileyi nishonlanadigan adiblarga bag‘ishlangan maqolalar va tarjima asarlar “Tanqid va kitobiyot” ruknida tanqidiy maqolalar, qardosh davlatlar ijodkorlari tomonidan yozilgan turkum asarlar, “Adabiyot” va “G‘arb adabiyoti” ruknida shoirlarning she‘rlari, nosirlarning hikoyalari berib borilgan.

**Mirtemirning “Dengiz” she‘rida**<sup>251</sup> dengiz misolida muallif xalqini ko‘radi. Undan jim yotmasdan qo‘zgalishini, toshishini, jaholat qal‘asini ostiga bosib, zolimlar dunyosini bitirishini so‘raydi. Yovuzlar dunyosini ustidan yiqitishini, muz ostida, zulm ostida tinch yotavermasdan quturib, qaynab zolimlar kemasini ostiga bosishini istaydi. Ushbu she‘r Mirtemirning hech bir “Saylanma”, “Tanlangan asarlar”i yoki she‘riy to‘plamlarida uchramaydi. She‘r Cho‘lponnini “Xalq” she‘riga o‘xshaydi.

Tinch dengiz, tinch dengiz, qo‘zg‘al, qo‘zg‘al bas!

Ovchilar kemasin irg‘it ko‘ksingdan.

<sup>250</sup> Tahririyat. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Toshkent, 1925. – № 1. – B. 3.

<sup>251</sup> Mirtemir. Dengiz. // Maorif va o‘qitg‘uvchi. – Samarqand, 1927. – № 7-8. – B.33.

Yovuzlar dunyosin yo'qot ustingdan,  
Ustingda o'ynatma, ost tomong'a bos!

تینچ دیکیز، تینچ دیکیز قوزغال، قوزغال باس!  
ئوچیلار کیماسین ئرغت کوکسینگدان...  
یاوزلار دونیاسن یوقات ئوستینگده ن،  
ئوستینگده ئویناتما، ئاست تامانغا باس!

Jurnal O'zbekiston Maorif komissarligining bir necha kollegiyalarida muhokama ob'ekti bo'lgan. Jumladan, 1925 yil (oyi ko'rsatilmagan)da "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining vazifalari to'g'risida"<sup>252</sup>, 1925 yil 8 avgustda "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining dasturi to'g'risida"<sup>253</sup>, 1925 yil 27 sentabrda "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining faoliyati to'g'risida"<sup>254</sup> va keyingi yillardagi faoliyati doimiy ravishda muhokama qilib borilgan. Demak, jurnal Respublika rahbariyatining doimiy e'tiborida bo'lgan va har qanday moliyaviy qiyinchiliklarga qaramasdan uning nashr qilinishiga mablag' ajratilgan.

Jurnalda jami 5250 misra she'r chop etilgan bo'lib, shulardan 1796 misrasi o'rganilmagan. Nasriy va tarjima asarlari va tanqidiy va ilmiy maqolalarning ham yarmidan ko'pi hali iste'foda etilmagan.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1925-1929 yillardagi sonlarida berilgan adabiyot materiallarini quyidagicha tasnif qilish mumkin.

<b>"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali 1925-1929-yillardagi sonlari asosida</b>					
<b>Adabiyot materialini ng turi</b>	Nazmiy asarlar	Nasriy asarlar	Tarjima asarlari	Tanqidiy asarlar	Tadqiq etilgan asarlar
<b>Soni</b>	178 ta	9 ta hikoyat va 37 ta hikoya	27 ta	15 ta	30 ta
<b>Mualliflari</b>	Cho'lpon, N.Rahimiy, Elbek, G'.Zafariy, Rahim Ali, A. Alaviy, Bonur, Bektosh, Botur, Oydin, G'ayratiy, H.Olimjon, Sh.Sulaymon, Botu, Oltoy,	Sherbek, Elbek Sh.Sulaymon Said Ahroriy, Bayish, G'ozi Yunus, F.Rahmon, Mirtemir, Kavkab, Somoniy, S.Ayniy, Yashin, Mahbuba	Mahmud Suboy, Ziyo Usmoniy, Y.Omon, Bayish, Rahim Ali, Qaysar Hikmat, Oston, Ama-laxonim Hayosiy, Uchqun,	Ramul, Said G'ani, Inoyat Said, Miyon Buzruk, E.Sayid, L.Xo'jayev, G'ozi Olim, Vadud Mahmud,	Tursunqul, G'ozi Olim,Fitrat, Sh,Sulaymon, A.Nazm, A.Zohiriy, Samaylovich, A.Majidiy, Miyon Buzruk, M.Raf'ili, Mutolaachi, F.Rahmon,

<sup>252</sup> Архив. Ф№ Р-94, ОП №1, Д№ 198а, лл. 155 – 157. Архив. Ф№ Р-94, ОП №1 Д№ 15 лл.89

<sup>253</sup> Архив. Ф№ Р-94, ОП №1 Д№ 15 лл.89

<sup>254</sup> Архив, Ф№ Р-94. ОП №1, Д№ 15, 134.

	Gulbek, Mirtemir, Uyg'un, Said Ahroriy, Majidiy, M.Alaviya, Mirhodiy, Yashin, Q.Hoshim, Yo'qsil, Oybek, I.Usmoniy, Nodi Mirza	Rahim qizi, N.Rahimiy, A.Hofiz, Amalaxonim, Abu Varoja, Fotih Bakir,Vadud Mahmud, O'lmas, Tayfun, Rahim Ali	Jo'raboev, Cho'lpon, Siddiqiy	Cho'lpon, Xanif Burnosh ev, Qubikuf	I.Hikmat, M.Raxim, Fathi Burnosh, Hoji Muyin, Cho'lpon
<b>Materialning jurnaldagi o'rni</b>	"Adabiyot" bo'limi	"Adabiyot" va "G'arb adabiyoti" bo'limi	"Adabiyot" va "G'arb adabiyoti" bo'limi	"Tanqid va taqriz" bo'limi	"Adabiy taftishlar va tarjimayi hol" bo'limi

Xullas, "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali badiiy, ta'limiy, tarbiyaviy, ilmiy-metodik, adabiy, ma'rifiy, publitsistik materiallari bilan XX asr o'zbek adabiyoti, madaniyatini boyitdi. Millat ziyolilarini hayotni chuqur idrok etishga, murakkab, ziddiyatli hodisalarni mohirona aks ettirishga da'vat etdi. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali o'zbek mumtoz adabiyoti hamda folklorini keng targ'ib qildi.

Umuman olganda, XX asr 20-yillaridan nashr etilib boshlangan "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalidagi adabiy materiallar milliy adabiyotimizni o'rganishda adabiy manba sifatida qimmatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Arxiv. FN<sup>o</sup> R-94, OP N<sup>o</sup>1, DN<sup>o</sup> 198a, ll. 155 – 157.
2. Arxiv. FN<sup>o</sup> R-94, OP N<sup>o</sup>1 DN<sup>o</sup> 15 ll.89
3. Arxiv, FN<sup>o</sup> R-94. OP N<sup>o</sup>1, DN<sup>o</sup> 15, 134.
4. Irzaev B. Kommunistlarga qarshi chiqqan kommunist.  
- Oyina <https://oyina.uz> › article
5. Mirtemir. Dengiz. //Maorif va o'qitg'uvchi. – Samarqand, 1927. – N<sup>o</sup> 7-8. – B.33.
6. Nurmanov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O'z, 2006. – B.117
7. Tahririyat. //Maorif va o'qitg'uvchi. – Toshkent, 1925. – N<sup>o</sup> 1. – B. 3.
8. O'zbekistonning eng yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. -Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000. – B. 270.
9. Qoriniyozov T.N. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar
10. Qoriniyozov T.N. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. – Toshkent: Fan, 1956, – B. 305.

---

пол ҳосил қиладиган қурилманинг тортишга қаршилигини аниқлаш.....	418
<b>Сиддикова Ш.А.</b> Значение международных оценочных программ для Узбекистана.....	422
<b>Soatova G.N.</b> “Maorif va o’qitg’uvchi” jurnali va jurnaldagi adabiyot materiallari tasnifi.....	424
<b>Sobirova M.I.</b> Abdurahmon ibn Xaldunning hayoti va siyosiy va ilmiy faoliyati.....	429
<b>Subkhonova N.A.</b> Relations with central asian states multiple repair mechanisms (Review of the articles of the “People’s Word” newspaper).....	430
<b>Sulaymonova F.O.</b> Boshlang’ich sinf o’quvchilarida nutq madaniyatini oshirish.....	434
<b>Суюнов Д.</b> Таълим-тарбия жараёнида ўқувчи ёшларда экологик тафаккурни шакллантириб бориш.....	438
<b>Suyunov Sh.J.</b> PISA xalqaro baholash dasturi doirasida o’quvchilarning kreativ fikrlashini oshirishga doir qo’llaniladigan tamoyillar.....	441
<b>Таралева Т.А, Вафин Д.М., Махмудов Д.Э., Усмоналиева Н.Ш.</b> Анализ композиционного состава тела и некоторых антропометрических показателей у элитных спортсменов, занимающихся греблей.....	445
<b>Таралева Т.А., Абляимов Р.Т., Рузикулова А.Н., Абдуллаева Х.О.</b> Вариабельность сердечного ритма в оценке тренируемости спортсменов, занимающихся велоспортом.....	447
<b>Тошанов Ф.Х.</b> Шахслардаги новербал мулоқот марказлари.....	449
<b>Тошпулатов И.И.</b> Инсон капитали назариясининг шаклланиши ва ривожланиши.....	451
<b>Тўлаганова З.К.</b> Бройлер жўжаларининг гўшт маҳсулдорлигини оширишда озучавий “бавмэнзайм” биологик ҳавфсиз озучавий қўшимчасидан фойдаланиш технологиясини ўрганиш.....	454
<b>Turobov J.Q.</b> Ta’lim tizimidagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida.....	457
<b>Турақулов А.А.</b> Замонавий футболда миллий қадриятлар тараннуми.....	458
<b>Тўрахонова М.А.</b> Мактабгача ёшдаги болаларни мустақил фикрлашга йўналтиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари.....	463
<b>Турғунов Ш.</b> Ўланларда тарихий воқелик ифодаси.....	465
<b>Tursunova N.A.</b> Boshlang’ich sinf o’quvchilarida kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda o’qituvchining roli.....	468
<b>Ubaydullaeva V.P., Mavlyanov A.</b> Kompetentli kadr – kelajak poydevori.....	471
<b>Ulkanboyeva M.</b> Ziddiyat va uyg’unlik (Guli Murod hikoyalari asosida).....	474
<b>Умарова К.А.</b> Методологические подходы к исследованию развития управления.....	477

## **“ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР: ОЛИМЛАР ВА ЁШЛАР НИГОҲИДА”**

**мавзусидаги Республика илмий-амалий  
конференция тўплами**

**2022 йил 29 сентябрь**

Конференциянинг телеграмдаги расмий канали

[https://t.me/konferensiya\\_2022](https://t.me/konferensiya_2022)

- ◊ **Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Талаба ва ўқувчиларни маънавий юксалишига кўмаклашиш маркази**
  - ◊ **Мирзо Уулғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети**
  - ◊ **Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотлари миллий ассоциацияси**
- ◊ **Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотларини қўллаб-қувватлаш жамоат фонди**
- ◊ **Ўзбекистон Ёшлар иттифоқи Тошкент шаҳар Кенгаши**
  - ◊ **Навоий вилояти Лидер ёшлар ва аёллар маркази**